

INGLIZ VA ARAB TILLARIDA OTNING KO'PLIK SHAKLLARI

Turg'unova Zahroxon Zoxirjon qizi

Andijon Davlat Chet Tillari Instituti Ingliz filologiyasi,

O'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti,

Filologiya va tillarini o'qitish: arab tili yo'nalishi 302-guruh talabasi

Nilufarxon Murxanova

Ingliz tili o'qitishning integrallashgan kursi

kafedrasi arab tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va arab tillarida ot so'z turkumining ko'plik shakli haqida tahlil olib boriladi. Maqola tilshunoslik nuqtai nazaridan har ikkala tilning grammatik tuzilishini o'rganadi va ko'plik shaklini hosil qilish usullarini solishtiradi. Maqola avval ingliz tilida otlarning ko'plik shakllari, shuningdek, istisnolar va turli grammatik qoidalar haqida batafsil ma'lumot beriladi. Keyinchalik, arab tilida otlarning ko'plik shaklini hosil qiluvchi usullari muhokama qilinadi. Har ikkala tilning o'ziga xos xususiyatlari va farqlari aniq ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Kommunikatsiya, affiksatsiya, fleksiya, son kategoriyasi

Abstract: This article analyzes the plural form of nouns in English and Arabic. The article studies the grammatical structure of both languages from a linguistic perspective and compares the methods of forming the plural form. The article first provides detailed information about the plural forms of nouns in English, as well as exceptions and various grammatical rules. Then, the methods of forming the plural form of nouns in Arabic are discussed. The specific features and differences of both languages are clearly shown.

Key words: Communication, affixation, inflection, number category

Аннотация: В данной статье анализируется форма множественного

числа существительных в английском и арабском языках. В статье рассматривается грамматический строй обоих языков с точки зрения лингвистики и сравниваются способы образования формы множественного числа. В статье впервые приводятся подробные сведения о формах множественного числа существительных в английском языке, а также об исключениях и различных грамматических особенностях правила. Далее будут рассмотрены способы образования множественной формы существительных в арабском языке. Наглядно показаны особенности и различия обоих языков.

Ключевые слова: Коммуникация, аффиксация, словоизменение, категория числа

Kirish. Til insoniyatning asosiy kommunikatsiya vositasi bo'lib, har bir til o'ziga xos grammatik tuzilishga ega. Otlarning ko'plik shakli deyarli barcha tillarda mavjud bo'lib, narsalar yoki shaxslarning ko'pligini ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu maqolada arab va ingliz tillaridagi otlarning ko'plik shakllari qiyosiy tahlil qilinadi, ularning o'xshash va farqli jihatlari ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism:

REGULAR PLURAL(TO'G'RI KO'PLIK)

Ingliz tilida ko'plik (plural) shakli yasash uchun ko'pgina otlarga **-s** yoki **-es** qo'shimchasini qo'shamiz. Bu ko'pgina holatlarda qo'llaniladi. Masalan: birlikda book bo'lsa undan ko'plik yasash uchun **-s** qo'shimchasini qo'shsak kifoya: books – kitoblar. O'zbek tiliga **-s** qo'shimchasi **-lar** deb tarjima qilinadi. one flower – two flowers.³³(**affiksatsiya**)

1. “y ” harfi bilan tugagan birlikdagi otlarni ko'plikka aylantirishda ikki xil holat mavjud: ³⁴

a) agar ot “y ” harfi bilan tugasa va undan oldin undosh harf kelsa, “y ” harfi “ie”

³³ <https://hasanboy.uz/4-dars-plurals/>

³⁴ Ingliz tili grammatikasi - S.Hafizov, O.Abdullayev, “Target Education”, 2018.

shakliga o'zgaradi.

Masalan: a city-cities, a baby-babies, a lady-ladies, etc.

b) agar ot "y" harfi bilan tugasa va undan oldin unli harf kelsa, "y" harfi o'z holatida qoladi.

Masalan: a boy-boys, a toy-toys, a guy-guys, a joy-joys, etc.

2. "o", "ch", "sh", "x", "s", "ss" harflari bilan tugagan birlikdagi otlarni ko'plikka aylantirishda "-es" qo'shimchasi shu harflardan so'ng qo'shiladi.

Masalan: a potato-potatoes, a church-churches, a brush-brushes, a box-boxes, a bus-buses, a glass-glasses, etc.

> Istisno:

Boshqa tillardan kirib kelgan "o" harfi bilan tugagan birlikdagi otlarni ko'plikka aylantirishda "-s" qo'shimchasi shu harfdan so'ng qo'shiladi.

audio-audios (audio) kimono-kimonos (kiyim tun) radio-radios (radio)

Ba'zi "o" harfi bilan tugagan birlikdagi otlar ko'plikka aylantirilganda "-s" yoki "-es" qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil qilinishi mumkin.

ghetto-ghettos/ghettoes (xaroba kulba) mosquito-mosquitos/mosquitoes (chivin) ...

3. "f" yoki "fe" harfiari bilan tugagan birlikdagi otلامي ko'plikka aylantirishda "-s" qo'shimchasi qo'shiladi.

Masalan: a cliff-cliffs, a handkerchief-handkerchiefs, a safe-safes, a roof-roofs, etc.

> Istisno:

Quyidagi "f" yoki "fe" harfiari bilan tugagan birlikdagi otlar ko'piikka aylantirilganda "f" va "fe" harfiari "ve" shakliga

o'zgaradi:

self-selves (shaxs) wife-wives (rafiqa) thief-thieves (o'g'ri) knife-knives (pichoq)

IRREGULAR PLURAL(NOTO'G'RI KO'PLIK)

Ba'zi birlikdagi otlar ko'plik sonda "-s" qo'shimchasini olmaydi. Ularning ko'pchiligi chet tilidan kirib kelgan so'zlar bo'lib, ba'zilar har ikkala -to'g'ri ("-s" qo'shimchasini qo'shish orqali) va notog'ri (boshqa yo'llar orqali) ko'plikda hosil qilinishi va quyidagicha shakliy o'zgarishlarga uchrashi mumkin:

1. “us” harfiari bilan tugagan birlikdagi otlar ko‘plikka aylanganda “us” harfiari “i” shakliga o‘zgaradi.

alumnus-alumni (bitiruvchi) stimulus-stimuli (turtki)

3. Grek va lotin tilidan kirib kelgan so‘zlarning ko‘piigi quyidagicha yasaladi:³⁵

basis [beisis] asos bases[beisi:z]

4. penny - pens otining ikkita ko‘pligi bor:

pence — pul birligi ma’nosida;

pennies - - tangalar, chaqalar ma’nosida.

Ba’zi otlar ko‘plikda butunlay boshqa o‘zakdan hosil bo‘ladi. Masalan, "person" - "people" (**Suppletivizm**). Bu hodisa ham qadimgi ingliz tilidagi o‘zgarishlar natijasidir.

5. sheep - qo‘y, fish — baliq otlari birlik va ko‘plikda bir xil shaklga ega: (**nol morfema**)

This farm has a great number of sheep - Bu fermaning qo‘ylari ko‘p.

6. Ba’zi so‘zlarimizga ko‘plik shaklini yasash uchun hech qanday qo‘shimcha qo‘shilmaydi. (**ichki fleksiya**)

Misol uchun: man-men, foot-feet, child-children. Bu so‘zlarni ko‘plik shaklini yasayotganimizda uni shakli o‘zgaryapti ya’ni qo‘shimcha olayotgani yo‘q.³⁶

7. “a” harfi bilan tugagan birlikdagi otlar ko‘plikka aylanganda “a ” harfi “ae” shakliga o‘zgaradi. antenna-antennae/antennas (antenna)³⁷

Bundan tashqari yana ko‘plab harflarning o‘rniga qarab ko‘plik shakllari qo‘shilish holatlari ham mavjud. Umuman olganda, ingliz tilida ko‘plik shakllari otlarning miqdoriy va grammatik xususiyatlarini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi.

ARAB TILIDAGI OTLARDA KO‘PLIK SON

Arab tili grammatikasi dunyoning eng murakkab va boy grammatik tizimlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizimda son kategoriyasi o‘ziga xos o‘rin tutadi.

³⁵ MUHAMMAD G‘APPOROV, ROBIYA QOSIMOVA INGLIZ TILI GRAMMATIKASI

³⁶ <https://hasanboy.uz/73-dars-trains-buses-singular-and-plural/>

³⁷ 108 - Ingliz tili grammatikasi - S.Hafizov, O.Abdullayev, “Target Education”, 2018.

Arab tilida son shakllari uch asosiy turga bo'linadi: **birlik** (المفرد), **ikkilik** (المتنى) va **ko'plik** (الجمع). Bu shakllar o'zining lug'aviy ma'nosi va grammatik vazifasi bilan arab tilining morfologik tizimini boyitadi.³⁸

Ko'plik (الجمع)

Ko'plik shakli uch yoki undan ortiq shaxs, predmet va voqea-hodisa haqida gap ketganida ishlatiladi. Ko'plik son o'zining morfologik xususiyatiga ko'ra ikki asosiy turga bo'linadi:

1. To'g'ri ko'plik (السالم الجمع).

Bu shakl erkak va ayol jinslar uchun alohida qoidalarga ega. Bu ham o'z o'rnida ikkiga bo'linadi.

A) To'g'ri muzakkar ko'plik (السالم المذكر جمع)

Birlikdagi muzakkar so'zga “ن” “و” qo'shish orqali yasaladi.

معلم - o'qituvchi

معلمون - o'qituvchilar

B) To'g'ri muannas ko'plik (السالم التأنيون جمع) birlikdagi muannas

so'zga “ا” qo'shish orqali yasaladi. Masalan:

مترجمة – tarjimon

مترجمات – tarjimonlar

!Kasb-hunar, mansab va qarindosh-urug'chilik munosabatlarini bildiruvchi so'zlarning oxiriga -una -ون qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi. Bunda birlik sonning oxiridagi tanvin (masalan, -un) olib tashlanadi.³⁹

Misollar:

مهندس - muhandis(erkak)

مهندسون - muhandislar(erkaklar)

2. Siniq ko'plik (jamu' taksir)

So'zning o'zagini tashkil etuvchi undoshlar orasidagi unlilarning o'zgarishi, no'zak undoshlarning kirishi, umuman, so'z ichki tarkibining o'zgarishi, boshqacha

³⁸ Hasanov M., Abzalova M. Arab tili grammatikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019, (54-57 betlar).

³⁹ Ne'matullo Ibrohimov Arab tili grammatikasi 68-bet

aytganda so'z vaznining o'zgarishi natijasida hosil bo'luvchi ko'plik siniq ko'plik deyiladi. Masalan:⁴⁰

كتب - كتاب (kitoblar) Kutubun-kitaabun

Siniq ko'plik har bir so'zdan o'ziga xos vaznda hosil bo'ladi. Bu vaznlar anchagina bo'lib, ularni ma'lum qoida asosida tartibga solib bo'lmaydi. Birlik sonda bir xil vaznda bo'lgan so'zning ko'pligi har xil vaznda bo'lishi yoki birlikda har xil vaznda bo'lgan so'zlarning ko'pligi bir xil vaznda bo'lishi mumkin. Arab tilida siniq ko'plikning eng ko'p uchraydigan **vaznlari** quyidagilardir:⁴¹

أفعال ، فعول ، فعل

Aqlsiz narsalarning ko'pligi muannas birlik hukmida bo'ladi. Yani gapda ismlarning ko'plik shakli agar ular aqlsiz narsalarga tegishli bo'lsa muannas birlik sifatida qo'llaymiz. Ya'ni agar aqlsiz narsalarning ko'plik shakli foil yoki noibi foil bo'lib kelsa fe'limiz muannas birlikda bo'ladi. Agar mu'tado bo'lib kelsa, xabarimiz muannas birlikda keladi va hokazo.

Yana bir muhim qoida. Foil yoki noibi foil birlik bo'lsa ham, ikkilik bo'lsa ham ko'plik bo'lib kelsa ham foili birlik bo'lib keladi. ⁴²Masalan : "Talabalar chiqdi" degan gapni **خرج الطلاب** shaklida ifodalaymiz.

Bundan tashqari, arab tilida bir so'z ikki yoki undan ortiq ko'plik shakliga ega. Arab tilida ayn so'zi o'zbek tiliga "ko'z" deb tarjima qilinadi. Uning ko'plik shakllari "uyun", "a'yun", "ayon". Bulardan "uyun", "a'yun" "ko'zlar" deb tarjima qilinadi.⁴³

Xulosa

Arab va ingliz tillaridagi otlarning ko'plik shakllari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Arab tili murakkab va qoliplarga asoslangan tuzilishga ega bo'lsa, ingliz tili sodda va muntazam tuzilishga ega. Ingliz tili va arab tilidagi o'xshash tomonlar bu ikkala tilda ham standart qoidalarga zid bo'lgan istisnolar mavjud, ikkala tilda ham

⁴⁰ www.arabic.uz

⁴¹ Носиров О., Юсупов М. Ан-На'им арабча-ўзбекча луғати. – Наманган, 2014.

⁴² Husan Xidirov Tamkin ARAB TILI GRAMMATIKASI

⁴³ Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – B. 120, 251.

bitta soʻzning birdan ortiq koʻpligi bor, ichki oʻzgarishlar va oʻzgarmas shakllar ikkala tilda ham kuzatildi. Farqli tomonlarini sanaydigan boʻlsak, arab tilida jinsga qarab koʻplik yasaladi, lekin ingliz tilida jins mavjud emas. Arab tilida koʻplik yasash uchun maxsus qoliplar ishlatiladi. Shunga koʻra, ingliz tili grammatik qoidalarini arab tiliga nisbatan osonroq deyish mumkin. Ushbu farqlarni tushunish tillarni oʻrganishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili grammatikasi. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent, 2019, (54-57 betlar).
2. Ingliz tili grammatikasi - S.Hafizov, O.Abdullayev, “Target Education”, 2018.
3. Носиров О., Юсупов М. Ан-На’йм арабча-ўзбекча луғати. – Наманган, 2014.
4. MUTARRIZIYNING “RISOLATUN FIN NAHV” ASARI MOʻJAZ GRAMMATIK MANBA.(2025). *Barqaror Taraqqiyot Va Rivojlanish Tamoyillari*, 3(4),85-88. <https://uzresearchers.com/index.php/BTRT/article/view/2528>
5. Joʻrayeva, M. A. “SHARHI MULLO” A RARE SOURCE.
6. Fatilloev, M. (2025). “MUʼJAMU-L-UDABO” DA MOVAROUNNAHR OLIMLARI HAQIDA MAʼLUMOT. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 645-654.
7. Raximjonov, M. (2023). Al-Fargʻoniyning falakiyot haqidagi qarashlari. *Alfraganus*, (2 (2)), 28-33.
8. Nugmanovich, R. M. Methods of Working on the Text in Uzbek Language Lessons. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(10), 234-237.
9. Tursunaliyeva, M. A. (2025). OGHIYNING “GULSHANI DAVLAT” ASARIDA HAMD VA NAʼT QISMLARINI BERILISHI. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 618-627.
10. Fatilloev, M., & Sh, S. (2020). Linguopoetic Analysis Of The Arabic Lexical Unit "Malak" In The Epic "Hayrat Ul-Abrar" By Alisher Navai. *THE AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE AND EDUCATION INNOVATIONS Ученители: The USA Journals*, 2(9), 493-498.

11. Xodi o‘g‘li, M. I. (2025, October). SAIDBEK HASANOV TAHLILIDA O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTINING ZAMONAVIY TALQINI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 2, pp. 360-363).
12. Jo‘rayeva, M. A. SCHOLARS WHO CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF MEDICINE IN MEDIEVAL CENTRAL ASIA.
13. Fatilloyev, M. (2025). YOQUT AL-HAMAVIY VA “MU’JAMU-L-UDABO” ASARINING DUNYO BO‘YLAB O‘RGANILISHI. *YANGI RENESSANSDA ILM-FAN TARAQQIYOTI*, 1(3), 510-514.
14. QIZI, T. M. A. The Compatibility of Ogahis Literary Translation and the Originality of Jamis Artistic Creation. *JournalNX*, 6(12), 223-226.
15. Maxmuda, P. L. (2025). ARAB TILI MORFOLOGIYASIDA MUBOLAG ‘A SIYG‘ALARI. *TA‘LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(4), 220-225.
16. Raxmonov, A. K. (2024). *Al-Farg‘oniyning «Usturlob yasash haqida kitob»ining Britaniya muzeyida saqlanayotgan “OR 5479” raqamli qo‘lyozma nusxasi. Til va adabiyot.uz*, 2024(1), 22–26.
17. Raxmonov, A. K. (2023). *Oliy ta‘lim muassasalarida arab tilini o‘qitishning zamonaviy usullari*. In “Bir makon, bir yo‘l” (SIRCON 2023) xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami (pp. 1848–1853). Alfraganus University.
18. Raxmonov, A. K. (2025). *Manbalar asosida Mitarriziy va Mutarriz ilmiy faoliyatining o‘rganilishi. Til va adabiyot.uz*, (12), 247–248.
19. Жураева, С. Х. (2024). Interaction of youth slang and cultural values of the people. *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 3(4), 119-126.
20. Жураева, С. Х. (2024). ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МОЛОДЁЖНОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ. *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, 1(2), 531-536.
21. Jurayeva, N. (2023). Mumtoz she‘riyatda Bobur g‘azallarining poetik xususiyatlari. *Alfraganus*, (1 (1)), 30-34.